

TARBIYA TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qo'idosheva Gulhayo Nabi qizi

Buxoro Innovatsiyalar universiteti,
2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10663693>

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda ta'lif jarayonida tarbiya texnologiyalarining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari masalalari, shuningdek, tarbiya texnologiyalarini ta'lif va tarbiya jarayonida qo'llashning amaliy ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, texnologiya, metod, inkorporatsiya, sistemali yondashuv, milliy g'oya, ma'naviy axloqiy e'tiqod, vayronkor g'oyalar, insonparvarlik, mafkura.

EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND THEIR SPECIFIC CHARACTERISTICS

Abstract. This article talks about the essence and specific features of educational technologies in the educational process using information communication technologies, as well as the practical importance of using educational technologies in the educational and educational process.

Key words: Education, technology, method, incorporation, systematic approach, national idea, spiritual and moral belief, destructive ideas, humanitarianism, ideology.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье говорится о сущности и особенностях образовательных технологий в образовательном процессе с использованием информационно-коммуникационных технологий, а также о практической значимости использования образовательных технологий в учебно-воспитательном процессе.

Ключевые слова: Образование, технология, метод, инкорпорация, системный подход, национальная идея, духовно-нравственные убеждения, деструктивные идеи, гуманизм, идеология.

Ma`naviy-ahloqiy tarbiyaning texnologik jarayoni-boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma`naviy barkamol shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan psixologik-pedagogik va tashkiliy jarayonlarning yaxlit tizimlashgan majmuidir.

Bu majmuani zamon talabida amalga oshirishda ilg'or psixologik-pedagogik texnologiyalardan keng foydalaniladi.

Texnologiya – aslida texnikaviy jarayonga tegishli bo'lib, muayyan jarayonni tizimli asosda samarali bajarishning metod va vositalari majmuasidir.

Pedagogik texnologiyalardan ma'lumki, ta'lif-tarbiya jarayoni uchta o'zaro aloqador birlik sifatida ko'rib chiqiladi. Bu esa, - ta'lif, tarbiya va rivojlanishdir.

Rivojlantiruvchi ta'lif texnologiyasining yetakchi prinsiplari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- tabiiylikni his qila olishlik - shaxsning genetik va ijtimoiy jihatlariga asoslangan holda o'quvchilarning o'ziga xosligini individual xususiyatlarini hisobga olish;

- yaratuvchanlik - turli o'quv muassasalari pedagoglarining pedagogik texnologiyalarni yaratish imkoniyatlari;
- moslashganlik;
- turli ta'lif muassasalarida ta'lif shakli, metodi va usullarining qo'llaniluvchanligi, uyg'unlilik-muayyan o'quv predmetiga oid o'quv materiali mazmunining shaxsni rivojlantirish shakli, metodi va usullari bilan uyg'un tarzda bog'lanishi;
- inkorporatsiya - sistemali yondashuv asosida turli fanlarga oid bilimlarni birlashtirish.

TARBIYA TEKNOLOGIYASINING FALSAFASI NIMADAN IBORAT?

"Texnologiya" yunoncha so'z bo'lib, "techne" - "mahorat", "san'at" va "logos" - "tushuncha", "o'rghanish" demakdir. Texnologiya so'zi zamirida jarayonlarni amalga oshirish usul va vositalari haqidagi bilimlar yig'indisi, shuningdek, obyektda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlar tushuniladi. Mana shu texnologik jarayonni tartibga solishda komil inson qiyofasini nazarda tutish, bir tizimga keltirish, ketma-ketligini to'g'ri belgilab olish barkamol shaxsni tarbiyalash mexanizmidir.

Tarbiya texnologiyasi - tarbiya jarayonini loyihalashtirish, amalga oshirish, baholash, tuzatish va keyinchalik qayta tiklash, shuningdek, bu jarayonni texnikaviy jihozlashning tizimli usuli. Tarbiya texnologiyasi ilmiy pedagogik bilimlarning zamonaviy darajasini aks ettirishi ta'lif va tarbiyaning samarali usullaridan foydalanishi, o'qitishning mumkin bo'lgan texnik vositalarni qo'llashi, ta'lif va tarbiya bo'yicha qo'yilgan maqsadga to'liq erishishni kafolatlashi, shuningdek, barcha tarbiya texnologiyalari shaxs shakllanish jarayonlari sifatini nazorat qilishning obyektiv metodikasi bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

Pedagogik bilimlar asosida milliy g'oya va mafkurani talabalar ongida shakllantirishni amalga oshirish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning birligi negizida tashkil etib, talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratish lozim. Bu borada samaradorlikka erishish yo'lida tashkil etilgan dastlabki harakat bu oliy ta'lif muassasalarida talabalarga pedagogik bilimlarni berish, ularda milliy g'oya xususidagi tushunchalarni hosil hilish, ma'naviy axloqiy e'tiqodni shakllantirish, vayronkor g'oyalar ta'siridan saqlanish, g'oyaviy insonparvarlik hosil qilish maqsadida olib borilayotgan tadbirlar mazmunini tahlil etish, talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlari darajasini o'rganishdan iborat. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ta'lifni insonparvarlashtirishni o'zi milliy g'oya xususidagi bilimlardan xabardor bo'lib borishni ta'minlaydi.

Tarbiya usullari turli elat, millat va davlatlarda turli-tumanligi bilan farq qiladi. Osiyo mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda esa ko'proq umuminsoniy tarbiya elementlari qo'llaniladi. Bunday tarbiya tizimining o'ziga xosligi o'zidan kattaga alohida hurmat, kattalar gapiga qulq solishlik, ularning topshiriqlarini beminnat bajarishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari axloqini, dunyoqarashini shakllantirishda ishontirish asosiy metodlardan hisoblanadi. Ishontirish usuli asrimizning

20 - yillariga kelib asosiy metodlardan biri sifatida ilgari surilgan.

Ishontirishning psixologik asosi o'quvchilar ongida kelgusi hatti-harakat bilan xarakterlanadi. Hatti-harakatni oldindan rejalashtirishning bu usuli orttirilgan tajribaga va faoliyatning normalari, qoidalari prinsiplariga asoslanadi. Shaxs biron bir ish yoki tadbirni

bajarishdan oldin albatta o‘z hatti-harakatlarini ijtimoiy talablar, atrof muhit sharoitlari bilan munosibligini o‘ylab ko‘radi.

Ishontirish usulida tarbiyachi o‘quvchilar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasiga ta’sir etish yo‘li bilan ularning xarakteridagi axloqiy, intellektual va boshqa ijobjiy hislatlarni shakllantiradi, illatlarni kamaytiradi, yo‘qotadi. Ishontirish shakllanayotgan shaxsnинг qadriyatlariga, dunyoqarashiga asoslanib, ruhiy va ijtimoiy munosabatlarning tub mag‘zini chuqr tushuntirishga tayanadigan metod hisoblanadi.

O‘qituvchi o‘zi aytayotgan, uzatayotgan axborotga o‘quvchilarni ishontira olsagina, o‘z orqasidan ergashtira oladi, o‘quvchilarni o‘quv mehnatiga, aqliy faoliyatiga rag‘batlantira oladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni ishontirish uchun turli vositalardan foydalanishi mumkin. Jonli suhbat, iboralarni asosli faktlarni keltirish, hissiyotlariga ta’sir etish shular sirasiga kiradi.

Ishontirish orqali o‘qituvchi o‘quvchilarda har tomonlama kompleks tarbiyani amalga oshiradi, hukumatimiz, Prezidentimizning olib borayotgan tashqi va ichki siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning Respublikamizga xos tamoyillari, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning yo‘llari tushuntirilganida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kelajakda Respublika hayotiga o‘zlarining shaxsiy daxldorliklarini chuqurroq his qiladilar va shunga yarasha bilim, ko‘nikmalarini egallashga harakat qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, ta’limni miliy g‘oya asosida insonparvarlashtirish texnologiyasini yaratish uchun ijtimoiy-gumanitar fanlari bo‘yicha tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar jarayonini kuzatib, mazkur jarayonda talabalarni milliy g‘oya xususidagi bilimlardan xabardor etishga yo‘naltirilgan faoliyat mazmunini o‘rgandik. Kuzatish davrida shunday holatning guvohi bo‘ldikki, kuzatuvchi-o‘qituvchi sifatida tanlangan pedagogika fanlari o‘qituvchilari tomonidan tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning insonparvarlik dunyoqarashini boyitib borish shuningdek, ularda kasbiy malakani hosil qilish kabi holatlarni qaror toptirish ishiga alohida e’tibor berilsa-da, milliy g‘oya va mafkura, uning vazifalari masalalarining doimiy ravishda, maqsadga muvofiq yoritib borilishiga nisbatan nazariy yoki amaliy yondashuv ko‘zga tashlanmaydi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy-gumanitar fanlarining professor-o‘qituvchilari yosh avlod ta’limi va tarbiyasini muvoffaqiyatli tashkil eta olish layoqatiga ega bo‘lishi, bu borada yetarli malaka oshirishi kerak.

Bu borada quyidagi tavsilarni ilgari surish mumkun:

- ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga ma’naviy omillarni singdirib borish;
- ta’limni insonparvarlashtirish, ya’ni tarbiyaviy omillar bilan yo‘g‘irish;
- ta’limning bosh maqsadi milliy g‘oya va mafkura asosida belgilanishini doimo nazarda tutish;
- ulkan ma’suliyat yuklayotganligini chuqr his etish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jiddiy g‘oyaviy tayyorgarlikka ega bo‘lishlari uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish.

Yuqorida tavsiyalarga muntazam amal qilish barkamol shaxsni voyaga etkazish texnologiyasining uzluksiz ta’lim jarayonidagi boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Azizxo‘jayev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство.- Т.: «Молия», 2002-йил.
3. Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. Tosh- kent, 1968
4. Беспалко В.П. Слагаемие педагогической технологии – М.: «Педагогика», 1989-йил.
5. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: 1995-йил
6. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. Yil.
7. G.Qo‘ldosheva. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga pedagogik materiallarni o‘rgatishda pedagogik texnologiyalar jarayonlarini takomillashtirish”. Maqola. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» 2023-yil.
8. G.Qo‘ldosheva. “Pedagogik texnologiyalarning ta’lim sohasiga tadbiq etilishi va rivojlanish xususiyatlari”. Tezis. “Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari” ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil.